AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

Norbutaev Abdumannop Abduxalil o‘gli - Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi

abdumannobnorbutayev2002@gmail.com

Annotation: The achievements in the formation of a person in the process of physical education are determined by how successfully the special tasks of physical education are carried out, as well as by how competently the ability of a person to

develop in this process is applied. Teacher and group leader in science, teachers of vocational colleges and academic lyceums and teachers of higher education institutions and teachers of the methodology of such educational work every other educator must have. Moral behavior in students through the process of physical education, qualities that develop will: perseverance, decisiveness, courage, heaviness, self-restraint restraint skills are forming.

Kalit suzlar: Jismoniy tarbiya,xulq qoidalari,tejamkorlik,odop, jismoniy sog‘lom.

Rivojlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda yangi ijtimoiy ongi shakllantirish ikkita asosiy omillar ta’siri ostida amalga oshadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy amaliyot va maqsadli ta’lim tarbiya jarayoni orqali. Har-bir inson faqatgina ta’lim tizimi orqali, ijtimoiy tarbiya va rivojlanish, kasbiy layoqatlarni egallash orqali shaxs bo‘lib shakllanadi. Qachonki inson jamoaviy ahamiyatli vazifalarni bajarish layoqatlarni egallaganda,ijtimoiy rollarni o‘zlashtira boshlaganda, o‘zining maqsadi va javobgarligini ijodiy anglab etganda, jamiyatning boshqa a’zolari bilan mustaqil ravishda munosabatga kirisha boshlaganda shaxsning ijtimoiylashuvi ro‘y beradi. Barchaga ma’lumki kasbiy tayyorlangan, ta’lim olgan, ma’naviy va axloqiy boy, jismoniy sog‘lom shaxssiz iqtisodiyotda, ijtimoiy va ma’naviy sohalarda, davlat va jamiyatda rivojlanish, o‘sish bo‘lmaydi.akatlarini Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor maqsadi uzluksiz ta’lim tizimi salohiyati, ijtimoiy institutlarning o‘zaromunosabati, shuningdek, maqadli boy pedagogik jismoniy tarbiya va sportning ulkan imkoniyatini qo‘llash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida shaxsni shakllanishidagi erishgan yutuqlari qanchalik jismoniy tarbiyaning maxsus vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganligiga ko‘ra hamda ushbu jarayonda qanchalik barkamol shaxsning rivojlanishidagi imkoniyati qo‘llanilishiga ko‘ra aniqlanadi. Bunday tarbiya ishining metodikasiga fan bo‘yicha o‘qituvchi va guruh rahbari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o‘qituvchilari hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va boshqa har bir tarbiyachi ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilarda jismoniy tarbiya jarayoni orqali axloqiy xulq-odoblar, irodani rivojlantiruvchi sifatlar: matonatlik, qatiyatlilik, jasurlik, og‘ir-vazminlik, o‘zini tuta bilish ko‘nikmalari shakllanib boradi. Qoidagi ko‘ra jismoniy mashqlar jamoada amalga oshiriladi, shuning uchun ham hamkorlikdagi harakat faoliyatining mazmuni va uning pedagogik boshqarilishi o‘quvchilarning o‘zlarini jamoada qanday tutishlarini bilishlariga, uning maqsadalariga bo‘ysunishiga, uni himoya qlishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Jismoniy tarbiya jarayonida intizomlilikni, hamjihatlilikni tarbiyalash belgilangan

qoidalarga amal qilishni o‘rgatish, ba’zi bir holatlarda an’anaviy bo‘lib borilishi (axborot (raport) berish tartibi, mashqlarni bajarishni to‘xtatish, o‘qituvchi, hakamning ishorasiga ko‘ra o‘yinni to‘xtatish) nazarda tutiladi. Safda turish mashqlari, qayta saflanish, safni yoymoq ko‘rsatmalarni aniq bajarilishini talab qilinishi ham intizomga o‘rgatadi. Saflanishni nazorat qilish – tashkillashtirilgan va tartiblanganlikni tekshirishning yaqqol misolidir. Ozodalik, tejamkorlik, jamoa mulkiga va insonlar mehnatiga hurmatda bo‘lish kabi sifatlar jismoniy-madaniy va sport tadbirlarini o‘tkazishda an’anaviy talabalar asosida tarbiyalanadi (ishtirokchilarning ozoda kiyimlari, jihozlarni astoydil tayyorlash va tozalash, ozodalikka rioya qilish va boshqalar). Jamoaviylikni tarbiyalash o‘z ichiga xushmuomilalik, odoblilik, o‘rtoqlariga izzat-hurmatda bo‘lishni qamrab oladi. Bunday me’yorlarning bajarilishini talab qilish bir qator qoidalar bilan mustahkamlanadi.

Xususan, har bir musobaqanig tugashi bilan uning ishtirokchilari yuzaga kelgan his to‘yg‘ularga qaramasdan bir-birini qutlashi kerak; bexosdan qoidani buzgan o‘yinchi qulini ko‘tarish orqali xabar berishi kerak va boshqalar. Ayniqsa, o‘yin eng qizg‘in nuqtasiga chiqqanda, o‘zining manfatlari yo‘lida harakat qilganda o‘rtog‘iga yordam berish maqsadida o‘zini tiyishi judayam qadrlanadi. Sayohatli safarlar ishtirokchilariga ularda o‘rtog‘ining xavfsizligiga javobgarligini tarbiyalovchi maxsus ehtiyot qilish va yordam berish ko‘nikmalarini o‘rgatishadi. Jamoviylik burchini, jamoa oldida

javobgarlikni tarbiyalash jamoaviy topshiriqlarni bajarish jarayonida, o‘yinlar vaqtida har bir ishtirokchi ummiy maqsadlar ostida harkat qilganda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Adalson, K. V. Chesnakov A.S. Fizicheskaya kultura i zdorovыy obraz jizni. - M: Fizkultura i sport, 2003. - 236 b.

2). Balsevich V.K. Fizicheskaya kultura dlya vsex i dlya kajdogo. - M., 2002. - 198 b.

3). Gabbazova, A.Ya. Ozdorovitelnaya fizicheskaya kultura: Metodicheskiye ukazaniya dlya studentov spetsialnoy meditsinskoy gruppы/ Ulyanovsk: 2002. - 23b.

4). Goyxman, P.N. Fizicheskaya kultura v shkole/ P.N. Goyxman, O.N. Trofimov. M.: FiS, 2004. 379b.

5). Karasev A.V. Ensiklopediya fizicheskoy podgotovki. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishning uslubiy asoslari: o‘quv qo‘llanma / A.V. Karasev. - M.: Leptos, 2004. 368 b.